



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRINING BUYRUG‘I

9«fevral»2024 yil.

01/189-A/F-son

Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligiga 2024-yilda ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lardan samarali foydalanish va tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish, tashkil etish va o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

a) sport maktablari va ommaviy sport tadbirlariga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

b) vazirlik va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sport boshqarmalari, oliy va professional ta’lim muassasalari, sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, terma jamoalarga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

v) tovarlar (ish va xizmatlar)ni xaridini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Xarid komissiyasi (bundan buyon matnda Xarid komissiyasi deb yuritiladi) tarkibi 3 -ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, vazirlikning tegishli boshqarmalari o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha tovarlar (ish va xizmatlar) xarid qilish yuzasidan takliflarni tasdiqlash uchun tegishligi bo‘yicha mazkur buyruqning 1 va 2-ilovalarida keltirilgan Ishchi guruhlariga kiritadi.

3. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (F.Halimov)ga:

a) Ishchi guruhlar tomonidan tasdiqlangan joriy yilda xarid qilinishi zarur bo‘lgan tovarlar (ish va xizmatlar)ning ehtiyojini xarid.uzex.uz reja-jadvaliga kiritilishini;

b) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq 2024-yilda tovarlar (ish va xizmatlar)ning davlat xaridlarini tashkil etish bo‘yicha Ishchi guruhleri va Xarid komissiyasiga ma’lumotlar kiritib borilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Xarid komissiyasi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq 2024-yilda tovarlar (ish va xizmatlar)ning davlat xaridlarini tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Yoshlar siyosati va sport vazirining 2023-yil 15-martdagi “Davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish to‘g‘risida”gi 01/294-A/F-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Devonxona (S.Rasulova)ga:

a) ushbu buyruq bilan vazirlikning tegishli boqarmasi va bo‘limlarini tanishtirish;

b) mazkur buyruq nusxasini sport turlari bo‘yicha Oliy sport mahorati maktablariga yuborish vazifalari yuklatilsin

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari M.Ismailov, Sh.Maxmudov va D.Raximova zimmalariga yuklatilsin.

Vazir



A.Ikramov

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____-fevraldagi
____-A/F-sonli buyrug'iga ilova
1-ilova

**Sport maktablari va ommaviy sport tadbirlariga tovarlar (ish va xizmatlar)ni
ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid
qilish hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha
ISHCHI GURUHI TARKIBI***

T/r	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	D.Raximova	Sport vaziri o'rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	F.Halimov	Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi, ishchi guruh kotibi
Ishchi guruh a'zolari		
3.	I.Po'latov	Sport maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i
4.	F.Abdukarimov	Etno sport turlarini rivojlantirish va sport normativlarini o'tkazish bo'limi boshlig'i
5.	D.Shamsiddinov	Ommaviy sportni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

Izoh: *Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____-fevraldagi
____-A/F-sonli buyrug'iga ilova
2-ilova

Vazirlik va uning hududiy boshqarmalari, oliy va professional ta'lim muassasalari, terma jamoalarga tovarlar (ish va xizmatlar)ni ehtiyoji, texnik talablari, narxlarini shakllantirish hamda xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh
ISHCHI GURUHI TARKIBI*

T/r	Ismi va familiyasi		Lavozimi
1.	Sh.Maxmudov		Sport vaziri o'rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	F.Halimov		Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi, ishchi guruh kotibi
Ishchi guruh a'zolari			
3.	M.Arzikulov		Oliy va professional ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari
4.	H.Toshmatov		Olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlarini qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
5.	A.Karimov		Olimpiya va kompleks musobaqalari dasturiga kiritilgan sport turlarini qo'llab-quvvatlash bo'limi bosh mutaxassisi
6.	Z.Majidov		Paralimpiya, qishki, ekstremal va noolimpiya sport turlari bo'limi bosh mutaxassisi

Izoh: *Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil ____-fevraldagi
____-A/F-sonli buyrug'iga ilova
2-ilova

**Tovarlar (ish va xizmatlar)ni xaridini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
XARID KOMISSIYASI TARKIBI***

T/r	Ismi va familiyasi	Lavozimi
1.	M.Ismailov	Yoshlar siyosati va sport vaziri o'rinbosari, xarid komissiyasi raisi
2.	Sh.Momindjanov	Ommaviy sportni rivojlantirish bo'limi xarid komissiyasi raisi o'rinbosari
3.	Lavozimga ko'ra	Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i, xarid komissiyasi kotibi**
Xarid komissiyasi a'zolari		
4.	M.Yunusov	Paralimpiya, qishki, ekstremal va noolimpiya sport turlari bo'limi boshlig'i
5.	F.Turdiyev	Oliy va professional ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'limi boshlig'i
6.	S.Yuldashev	Ishlar bo'limi boshlig'i
7.	N.Shoymardonov	AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi
8.	A.Nizametdinov	Oliy sport yutuqlari boshqarmasi bo'limi boshlig'i
Ekspertlar *, **, ***, ****		
1.	J.Akramov	Sport o'yinlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
2.	Lavozimga ko'ra	Sportning qishki va murakkab texnik turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
3.	M.Rahmatxo'jaev	Sport yakkakurashlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori
4.	S.G'ulomnazarov	Engil atletika bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi direktori

Izoh: *- Xarid komissiyasi va ekspertlar tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi;

** - Kotib va ekspertlar ovoz berish huquqiga ega emas.

***- Ekspertlar xarid ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan mahsulotlarni o'rganib chiqish va uning sifati hamda belgilangan talablarga mosligi bo'yicha xulosalar tayyorlaydi.

**** - Ekspertlar tarkibiga tegishli vazirlik va idoralardan mutaxassislar jalb etilishi mumkin.